



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Murtazayev Eshmurod Mustafayevich<sup>1</sup>  
Boboqulova Mohinur Abduraxmon qizi<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Guliston Davlat Universiteti Pedagogika Fakulteti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasи o‘qituvchisi  
E-mail: [lilolshakirova91@gmail.com](mailto:lilolshakirova91@gmail.com)

<sup>2</sup>Guliston Davlat Universiteti Pedagogika Fakulteti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi

## TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallif tomonidan ta’limni zamon talabi darajasida isloq qilish, uning sifatini yuksak talab darajasiga ko‘tarish muammolari atroflichcha ko‘rib chiqilgan bo‘lib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda milliy va xorijiy tajriba keng yoritilgan. Shuningdek maqolada yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ta’lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy xususiyatlar ko‘rsatib berilgan hamda oliy o‘quv yurtidagi sifat tizimi tushunchasini asosini ifodalovchi qoidalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ta’lim, sotsial menejment, globallashuv, boshqaruv, kordinatsiya, mutaxassis, kadrlar, oliy ta’lim, jarayon, madaniyat, koserpsiya, mehnat taqsimoti

**Annotation.** In this article, the author discusses in detail the problems of reforming education at the level of modern requirements, raising its quality to a high level of demand, the national and foreign experience in training highly qualified personnel. The rules that represent the basis of the concept of quality system in higher education are given. Five universal elements of the management system based



on the principles of quality management are substantiated and analyzed to determine whether these elements are specific to any organization.

**Key words:** Education, social management, globalization, management, coordination, specialist, human resources, higher education, process, culture, concept, division of labor.

**KIRISH.** Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda yashay oladigan yoshlarni tayyorlash uchun asosiy vazifasini muayyan miqdordagi bilimlarni berishdan iborat deb hisoblaydigan an’anaviy ta’lim yo‘sini mutlaqo yetarli emas. Chunki ilm-fan va texnika shu darajada rivojlandiki, endi odam biror fandagi eng asosiy tushunchalarni ham xotirasida saqlab qola olmaydi. Buning ustiga, tinimsiz o‘zgarishlardan iborat bo‘lib qolgan hayotga mustaqil qadam qo‘yayotgan yoshlar ana shunday o‘zgarishlarga ham intellektual, ham ma’naviy jihatdan tayyor bo‘lmasa, raqobatlar kurashidan iborat dunyoda o‘z o‘rnini topolmasligi mumkin. Hozirgi kunda ta’lim tizimida boy tajribalar yig’ilgan. Chunonchi, ishbilarmonlik o‘yinlari, kompyuterli o‘qitish, individuallashtirilgan o‘qitish, insonparvarlik, hamkorlik, shaxsni erkin tarbiyalash va h.zo.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.** Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me’yoriy hujjatlar, o‘quv-metodik adabiyotlar, o‘quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg’or xorijiy tajriba asosida mактабгача ta’lim tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo‘yicha sohaga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Shu bois mamlakatimizda mактабгача ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda mактабгача ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi 2016-yil 29-dekabrdagi PQ2707-sonli, “Mактабгача ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi 2017-yil 9- sentyabrdagi PQ-3261-son qarorlari,



“Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi 2017- yil 30- sentyabrdagi PF-5198 sonli Farmoyishi shular jumlasidandir.


“Maktabgacha ta’lim konsepsiysi”ning paydo bo‘lishi maktabgacha ta’lim mazmunini yangilash, umumiyl amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish va pedagoglar tomonidan o‘qitishning yangi usullari va shakllarini o‘rganish bilan bog’liq nazariy va amaliy masalalarni qizg’in muhokama qilishning boshlanishi bo‘ldi. Mahalliy maktabgacha ta’limda innovatsion jarayonlarni rivojlantirish normativ va dasturiy-metodik hujjatlarda aks ettirilgan. Ushbu ishda ta’limning barcha darajalari, metodologiya xizmati, ilm-fan va amaliyotning barcha darajadagi mutaxassislar ishtirok etib, birlashtirilgan ta’lim maskani yaratildi. Maktabgacha ta’lim sohasi uzlusiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g’ini hisoblanib, u har tomonlama sog’lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g’oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida Respublikada ta’lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari darajasiga ko‘tarildi. Biroq o‘tkazilgan tahlillar maktabgacha ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko‘rsatmoqda.

Jumladan, MTTda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, didaktik topshiriqlar va ishlanmalar, bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha zamonaviy shakl va usullarni ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada tahlil qilinmaganligi hamda ular singari ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiyl, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof muhit bilan tanishuvga yo‘naltirilgan maxsus davlat ta’lim dasturlari tatbiq qilinmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati ijodkor emasligi, ta’lim-tarbiya sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi faktorlarni keltirish mumkin.

Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim sifati monitoringini yuritish tuzilmaviy va tashkiliy jihatdan nazarda tutilmaganligi sababli, maktabgacha ta’lim

tashkilotlaridagi ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini baholash zamon talablariga javob bermaydi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** Ta’lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo‘g’ini hisoblangan maktabgacha ta’limda jadal o‘zgarishlar yuz bermoqda va ular quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda: maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy-me’yoriy asosi takomillashmoqda; maktabgacha ta’lim tashkilotlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining yangi turlariga o’tmoqda; nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog’i kengaymoqda; ta’limning ilg’or texnologiyalari joriy etilmoqda; xodimlarning malaka oshirish tizimi takomillashmoqda; qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining muqobil shakllari joriy etilmoqda. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlari zamonaviy tizimi quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan.





Ta’lim jarayoni bola shaxsiga yo‘naltirilganligidan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiyasi shaxsning rivojlanishida ijodiy va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda ta’lim-tarbiyaning usul va uslublari tizimidan tashkil topgan hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga tayanib amalga oshirilishi lozim.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Maktabgacha ta’lim tashkiloti mashg’ulotlarini zamonaviy tashkil etishning mazmun va mohiyatini amalda qo‘llashga oid qator mashg’ulotlar o‘tkazildi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining Tayyorlov guruhida 32 ta tarbiyalanuvchi, keyingi guruhida 35 ta tarbiyalanuvchi, oxirgi tayyorlov guruhida esa 35 ta tarbiyalanuvchi mavjud bo‘lib, sinov shu uchta o‘zbek guruhlarida olib borildi. Tajribalarimiz avvalida tayyorlov guruhlarida tarbiyalanuchilarining o‘zlashtirish darajasini quyidagi ko‘rinishini aniqladik.

#### 1- jadval

| Tanlanmalar    | Qoniqarsiz | Qoniqarli | Yaxshi | A’lo | Tarbiyalanuvchilar soni |
|----------------|------------|-----------|--------|------|-------------------------|
| Tajriba guruhi | 19         | 16        | 28     | 4    | 67                      |
| Nazorat guruhi | 32         | 14        | 18     | 5    | 69                      |
| Jami           | 51         | 30        | 46     | 9    | 136                     |

Ta’limiy tajribalar asosida olingan natijalar tadqiqot uchun ko‘zlagan maqsad va ilmiy g’oyaning asosli ekanini ko‘rsatdi.

Tajriba yakunida olingan ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha ta’lim tashkiioti mashg’ulotlarini zamonaviy tashkil etishning nafaqat ularning bilim darajalarini oshishiga xizmat qilib, balki ularda o‘yin faoliyati, psixofiziologik xususiyatlari, jumladan tafakkuri, xotirasining shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Buni quyidagi jadval asosida ko‘rishimiz mumkin:



## 2- jadval

| Tanlanmalar    | Qoniqarsiz | Qoniqarli | Yaxshi | A'lo | Tarbiyalanuvchilar soni |
|----------------|------------|-----------|--------|------|-------------------------|
| Tajriba guruhi |            | 2         | 11     | 54   | 67                      |
| Nazorat guruhi | 31         | 12        | 20     | 6    | 69                      |
| Jami           | 31         | 14        | 31     | 60   | 136                     |

Yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda tajriba ishlarimizni quyidagilarga qaratdik.

1. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi mavzular bo'yicha topshiriqlar og'zaki test asosida o'tkazildi.
2. Tajriba avvalida 5,97 foiz o'zlashtirishga, tajriba yakunida esa 80,59 foiz o'zlashtirishga erishdilar.

MTTda o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari juda ham quvonarli. Bundan ma'lum bo'ladiki, tajribadan keyingi holat tajribadan oldingi holatdan yuqori ekan.

Demak, ushbu maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etishda yaxshi natijalarga erishgan deyish mumkin.

Ta'lim samaradorligini oshirish, eng avvalo, tarbiyachining pedagogik mahorati hamda uning ta'lim jarayoniga nisbatan yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda tarbiyachilarining pedagogik mahorati darjasи har bir mashg'ulot hamda o'r ganilayotgan mavzuning tarbiyalanuvchilarga yetkazib berish jarayoniga nisbatan ijodiy, texnologik yondashuvni taqozo etmoqda. Texnologik yondashuv negizida namoyon bo'luvchi holatlarning asosiysi – bu dars jarayonining muayyan loyiha asosida tashkil etilishi sanaladi.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish lozimki, texnologik yondashuv asosida ta'limni tashkil etish ijobiy natijalarni beradi.



## UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR

1. “Zamonaviy ta’lim usullari” deganda maktabgacha ta’lim tashkiLoti mashg’ulotlarini o’rganish bo‘yicha tarbiyalanuvchilarning oldiga qo‘yilgan pedagogik muammoni mustaqil yechishga xizmat qiadigan interfaol metodlar ko‘zda tutiladi.
2. Adabiy ta’lim samaradorligiga erishishning eng maqbul yo‘li – bu maktabgacha ta’lim tashkilotlarida fan mashg’ulotlarini o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash sanaladi.
3. Maktabgacha ta’lim tashkiloti mashg’ulotlari zamonaviy tashkil etilsa, tarbiyalanuvchilarda samarali muloqot va o‘z fikrini to‘g’ri, ravon, ifodali bayon etish hamda asosli himoya qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.
4. Ta’lim samaradorligi tarbiyachilar tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiya nazariyasi asoslari borasidagi nazariy va amaliy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga bog’liq.
5. Zamonaviy usullar tarbilanuvchilarni faollashtiradi, ular o‘zaro bahsmunozara asnosida kichik hikoyalarning mohiyatini teranroq anglaydilar.
8. Tarbiyalanuvchilar bilan hamkorlikda mashg’ulotlar uyushtirilsa, kichik guruuhlar tashkil etilsa, topshiriqlar alohida tarbiyalanuvchiga emas, balki kichik guruhlarga berilsa, bolalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatish zarurati va ko‘nikmasi yuzaga keladi.

## TAVSIYALAR

1. Maktabgacha ta’lim tashkiioti mashg’ulotlarini zamonaviy tashkil etish metodikasiga amaliy-uslubiy jihatdan e’tibor qaratish va pedagog-tarbiyachilarning kompetentsiyaviy yondashuv asosida faoliyat olib borish imkoniyatlari qamrovini kengaytirishga xizmat qilishi lozim.
2. Maktabgacha ta’lim tashkiloti mashg’ulotlarini interfaol usullarda o‘qitishni tashkil etishdan oldin joylarda tarbiyachilarning innovatsion faoliyatini



maqsadli va samarali tashkil etishga mo‘ljallangan maxsus o‘quv seminarlari o‘tkazish lozim.

3. Pedagog-tarbiyachilarni maktabgacha yoshdagi bolalarni zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish maqsadida “Maktabgacha ta’lim tashkiloti mashg’ulotlarini zamonaviy tashkil etish texnologiyalari” nomli metodik qo‘llanma yaratish.

### **Foydalanimanligi adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.” - T.: O‘zbekiston, 2017.

2. Abdullayeva N. Maktabgacha ta’limga variativ yondashuv asosida takomillashtirish. Ped. fan. nom... diss. –T.: 2020. – 164 b.

3. Кларин М. В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках. –М.: «Арена», 1994.

4. Qodirova F.R., Qodirova R.M. “Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o‘rgatish metodikasi”, O‘quv-metodik qo‘llanma. -T.: 2004.

5. Монахов В.М. Введение в теорию педагогических технологий. Монография, г. Волгоград «Перемена» 2006.

6. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. 2000-y.